NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OTAXANOVA MAHMUDA MAMADALIYEVNA

CHUSTIY LIRIKASINING POETIK XUSUSIYATLARI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UO‘K:821.512.133.09-13.09-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Otaxanova Mahmuda Mamadaliyevna
Chustiy lirikasining poetik xususiyatlari 3

Otakhanova Makhmuda Mamadaliyevna
The Poetic Characteristics of Chustiy's Lyric Poetry 27

Отаханова Махмуда Мамадалиевна
Поэтические особенности лирики Чустия 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 58

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

OTAXANOVA MAHMUDA MAMADALIYEVNA

CHUSTIY LIRIKASINING POETIK XUSUSIYATLARI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/Fil1578 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimova Faridaxon Isakovna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Oripova Gulnozaxon Murodilovna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
	G‘ayipov Dilshod Qadambayevich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

N.M.Uluqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor.

O.T.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

M.Y.Sulaymonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ijodiy jarayon, she’r poetikasi va badiiy mahoratning uzviyligi, an’ana va novatorlik, janrlar tizimi, vazn va qofiya xususiyatlari, badiiy nutq, shakl va tasviriy vositalardan foydalanishdagi individuallik singari masalalarni o‘rganish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga egaligi e’tirof etilgan. Jumladan, ijodkor biografiyasining asarlarida aks etishi, individual uslubda namoyon bo‘luvchi jihatlarni aniqlash, janr, mavzu, obrazlarni tasniflash, shoirning poetik mahorati kabi qator muammolarni yaxlit holda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor uslubini, badiiy mahoratini belgilovchi omillar sifatida u yashagan ijtimoiy-siyosiy, adabiy muhit, adabiy-estetik qarashlarning shakllanishi kabi masalalar bo‘yicha muayyan izlanishlar olib borilmoqda. Hozirda zamonaviy adabiyotshunoslik ilmida muayyan ijodkor badiiy mahoratini o‘rganish asosida poetika ilmining yangi qirralarini kashf etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, individual uslub va poetik mahorat, an’ana va novatorlikni she’riy janrlar va shakllar rang-barangligida ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga alohida diqqat qaratilmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti tarixini xolis va haqqoniy o‘rganish imkoniyati har qachongidan ham rivojlandi. “Namangan qadimdan ko‘p-ko‘p iste’dod egalari parvoziga qanot bergan ilohiy bir makondir. Bu ko‘hna yurtda tug‘ilib ijod qilgan Maxdumi A’zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoniy, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda singari shoir va ma’rifatparvarlar nomini xalqimiz hurmat bilan tilga oladi”[1]. Istiqlol davri adabiyotshunosligida bu ijodkorlar adabiy merosi yuzasidan ayrim tadqiqotlar yaratilgan. Shunga qaramay, ayrim ijodkorlarning yaratgan boy adabiy merosi hali o‘zining munosib bahosini olgan emas. “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”[2] . Zero, XX asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Chustiy (Nabixon Xo‘jayev)ning she’riy asarlarini monografik tarzda o‘rganish, she’rlariga xos an’anaviylik, vorisiylik va novatorlik xususiyatlarini ochib berish, janr, mavzu, vazn jihatlarini, qolaversa, ijodkor badiiy mahoratini tadqiq etish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

[1] Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 73.

[2] Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017. 4 август. – Б. 1.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida o‘zining yuksak poetik tafakkur namunalari bilan insoniyat ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir qilgan ijodkorlarning asarlari adabiyotshunoslar diqqat markazida bo‘lgan. Aristotel, M.M.Baxtin, L.G.Prigojina, A.N.Veselovskiy, A.A.Potebnya, B.V.Tomashevskiy[3] kabi yirik olimlarning ishlarida poetik masalalar monografik tarzda tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda poetika masalasiga adabiyot nazariyasi mezonlarida yondashilib, uning muhim qonuniyatlari ochib berilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida M.Qo‘shjonov, N.Rahimjonov, V.Qodirov, B.Norboyev, A.Sabirdinov, Sh.Hasanov, G.Ashurova, H.Nusratova, H.G‘aipova, A.Abdurahmon, M.Davronova[4] kabi olimlarning tadqiqotlarida muayyan ijodkor asarlari poetikasi va uning o‘ziga xos badiiy jihatlari tahlil etilgan.

Chustiy – Nabixon Xo‘jayev ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator ishlar ham mavjud. Sh. Yusupov, M. Nurmatov, I. Abdulloh, H. Sa’dulla, A. Xalilbekov,

---

[3] Аристотель. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика / Рус тилидан М. Маҳмудов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 352 б.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М, 1979. – С. 222.; Пригожина Л.Г. Проблемы поэтической драмы и советский театр рубежа 1920-1930 х годов. Учебное пособие. – Л., 1991. – 74 с.; Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 224 с.; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 299 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – 614 с.; Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М.: Аспект пресс, 1996. – С.182.

[4] Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 329 б.; Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2003. – 173 б. ; Қодиров В. Ҳозирги замон ғазаллари поэтикасининг айрим хусусиятлари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 44 б.; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари: Филол. фан. д-ри … дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 54 б. ; Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 46 б. ; Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек достонлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри … дисс. – Самарқанд, 2004. – 258 б. ; Ашурова Г. Абдулла Орипов шеъриятида анъана ва бадиий маҳорат (образ, ғоя ва тасвир): Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б. ; Нусратова Ҳ. Сафар Барноевнинг бадиий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 45 б.; Ғаипова Ҳ. Матназар Абдулҳакимнинг бадиий ва публицистик маҳорати: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б.; Абдураҳмон А. Ўзбек шеъриятида нур, ранг ва руҳият тасвири поэтикаси (анъана ва новаторлик аспектида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 54 б. ; Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси (Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Фахриёр ва Абдували Қутбиддин шеърияти мисолида): Филол. фан. д-ри. … дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 66 б.

M. Ma’murov, M. In’om, U. Abduazimova, A. Abduvaliev, Z. Dehqonova, T. Toshev, H. Orifiylarning bir necha maqola va risolalari[5], shuningdek, Sh. Rahmonova, S. Shomurodova, G. Boltayeva kabilarning tadqiqotlari[6] shular jumlasidandir. Adabiyotshunos Sh. Rahmonovaning vazn masalalari bo‘yicha olib borgan izlanishlarini bu yo‘ldagi jiddiy va salmoqli ish sifatida baholash mumkin. Tadqiqotda boshqa ijodkorlar qatorida Chustiy g‘azaliyotining vazn xususiyatlari haqida jiddiy mulohazalar bildirilgan. Mazkur tadqiqot Chustiy lirikasining janriy tarkibi, mavzular mundarijasi, timsollar tizimi, shuningdek, she’riy san’atlar, qofiya va radif qo‘llash bilan bog‘liq shoir mahorati monografik tarzda maxsus tadqiq qilinganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nabixon Chustiy lirikasining mavzu ko‘lami, janrlar tarkibi, obrazlar tizimi, shuningdek, shoirning she’riy san’atlar, qofiya va radifdan foydalanish bilan bog‘liq badiiy mahoratini adabiy an’ana, izdoshlik hamda o‘ziga xoslik tamoyillariga tayanib, adabiy matn tahlili asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyotshunoslikda Chustiy ijodining o‘rganilishi masalasini yoritish va shoirning ilmiy-ijodiy biografiyasini yaratish;

shoir lirikasining janr xususiyatlarini tadqiq etish orqali uning o‘zbek she’riyati rivojiga qo‘shgan hissasini yoritish;

shoir she’riyatining mavzular mundarijasini o‘rganish asosida Chustiyning XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek g‘azaliyoti tadrijiy taraqqiyotida tutgan o‘rnini belgilash;

---

[5] Юсупов Ш. Куярман оташи ҳижрон аро… // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2004. – №25. – Б. 1-2; Чустий. Садоқат гуллари (девон) // Нурматов М. Чустий гулдастаси (кириш сўз). – Тошкент, 1992. – Б. 3-4; Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Покдомон инсон эди // Наманган ҳақиқати, 2004. – №52. – Б. 8.; Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Шарқ, 2005. – 384 б.; Ҳабиб Саъдулла. Бир оқшом сурури // Наманган ҳақиқати, 2004. – №5. – Б. 3-4; Халилбеков А. Ширинзабон ғазалхон // Наманган ҳақиқати, 2004. – №5. – Б. 4.; Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. Илмий тадқиқот. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2007. – 468 б.; Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Наманган адиблари. –Тошкент: Фан, 2007. – 280 б.; Маъмуров М. Чустий мактублари // Наманган ҳақиқати, 2004. – №51. – Б. 8.; Инъомхон М. Ёд этингиз камтарин Чустийни ҳам… (хотиралар, эсдаликлар, чоп этилмаган назмлар). – Наманган, 1994. – 112 б. ; Инъомхон М. Жозибадор ғазаллар ижодкори // Наманган ҳақиқати, 2004. – №32. – Б. 5.; Инъомхон М. Боғ аро қўйсам қадам // Наманган ҳақиқати, 2004. – №5. – Б. 4.; Инъом М. Соғинч (эссе). – Наманган, 2012. – 80 б.; Абдуазимова У. Шеър омон бўлса… // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2004. – №30. – Б. 1-5.; Абдувалиев А. Халқнинг мумтоз шоири // Наманган ҳақиқати, 2004. – №54. – Б. 8.; Деҳқонова З. Чустий абадияти // Адабиёт кўзгуси, 2006. – №9. – Б. 143-145.; Деҳқонова З. Чустий туюқлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005. – №3. – Б. 98-100.; Деҳқонова З. Чустийнинг панд рисоласи // Тил ва адабиёт таълими, 2003. – №2. – Б. 11-12.; Тошев Т. Ёд айланг бу камтарин Чустийни… // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2006. – №22. – Б. 4; Орифий Ҳ. Қалблардасиз, Мавлоно Чустий. – Наманган, 2010. – 24 б.

[6] Ш. Раҳмонова. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеъриятида арузнинг поэтик шакл ва мазмун такомилидаги ўрни: Филол.фан. фалс. докт. (PhD) … дисс. – Тошкент, 2020. – 157 б.; Шомуродова Ш. XX аср ўзбек адабиётида девончилик анъанаси: мавзу, таркиб, вазн ва бадиий санъатлар: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) … дисс. – Самарқанд, 2022. – 143 б.; Boltayeva G. O‘zbek she’riyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Toshkent, 2024. – 266 b.

ijodkor lirikasidagi mumtoz timsollar tizimi va ularning transformatsiyaga uchrashi, xususan, zamon ruhi bilan hamnafaslik masalasini asoslash;

shoir ijodidagi an'anaviy poetik san'atlar bilan bir qatorda "topilma" xarakteridagi ma'naviy va lafziy san'atlar tahlili orqali shoirning poetik mahoratini aniqlash;

Chustiy she'riyatidagi vazn, qofiya va radif masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, shoir poetik uslubining o'ziga xos qirralarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Chustiyning "Hayotnoma", "Sadoqat gullari", "Ko'ngil tilagi" nomli devonlari va "Ko'rguncha, xayr endi" nomli she'riy to'plami olingan.

Tadqiqotning predmetini XX asrda yashab ijod etgan Chustiy adabiy merosidagi she'rlarning janr tarkibi, mavzu ko'lami, timsollar tizimi, shuningdek, ijodkorning she'riy san'atlar, qofiya va radifdan foydalanish mahoratini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, tasniflash, germenevtik va biografik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Chustiy shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy (oila muhiti, XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhiti) va badiiy (xalq og'zaki ijodi, Sharq mumtoz adabiyoti, tarjimachilik) omillar aniqlanib, shoirning ilmiy-ijodiy biografiyasi ochib berilgan;

shoir she'riyatida g'azal, musammat, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit'a, chiston kabi mumtoz janrlarning o'rni, xususan, g'azalning shakliy-poetik jihatdan g'azali muvashshah, g'azali qo'shmuvashshahi ta'rix, g'azali mushoira, g'azali zulqofiyatayn, g'azali zulradifayn singari ko'rinishlari mavjudligiga e'tibor qaratilib, an'anadagi tadrijiylik, shakl va mazmun mutanosibligining o'ziga xos jihatlari yoritilgan;

Chustiyning ishqiy, axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy (publitsistik), hajviy yo'nalishdagi she'rlari mavzu guruhlariga ajratilib, tasniflangan hamda ishqiy mavzu oid she'rlardagi oshiq, ma'shuqa, raqib obrazlari davr ruhi, zamon o'zgarishlari bilan bog'liqlikda transformatsiyaga uchragani isbotlangan;

shoir devonlaridagi "topilma" baytlar tahlili orqali she'riy san'atlar, qofiya, radifdan foydalanish mahorati adabiy matn mazmuniga muvofiqlikda asoslanib, lirik qahramon xarakteriga xos nekbinlik, olijanoblik, adolatparvarlik fazilatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan Chustiy arxividagi materiallarni o'rganish jarayonida shoir ilmiy-ijodiy biografiyasining muayyan qirralariga aniqliklar kiritilgan;

Chustiy devonining janr xususiyatlari, xususan, g'azallari ilk marotaba shakliy-poetik jihatdan batafsil tadqiq etilgan;

she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzu ko'lami, timsollar tizmi va poetik o'ziga xosligi aniqlangan;

ijodkorning mubolag‘a, tashbeh, husni ta’lil, talmeh, tajohuli orif kabi ma’naviy va tajnis, tafriq, tardu aks singari she’riy san’atlarni qo‘llashdagi badiiy mahorati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, tasniflash, germenevtik va biografik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijodkorning badiiy mahorati qirralari, poetikasi, an’ana va novatorlik, she’r nazariyasi singari badiiy tafakkurdagi o‘zgarishlarni o‘rganish bilan aloqador tadqiqotlar uchun muayyan darajada ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Navoiyshunoslik”, “Namangan adabiy muhiti”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, adabiyotshunoslik terminlari lug‘atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chustiy lirikasi poetikasiga xos xususiyatlarni aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

muayyan davr adabiyoti, she’riyati tahlil doirasiga tortilgan tadqiqotlardagi Chustiyga munosabat masalasi yoritilgani, ijodkor shaxsiyati va poetik dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir etgan ijtimoiy (oila muhiti, XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti) va badiiy (xalq og‘zaki ijodi, Sharq mumtoz adabiyoti, tarjimachilik) omillar aniqlangani, shoirning ilmiy-ijodiy biografiyasi yaratilganiga doir ma’lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universitetining 2018-2020-yillarda amalga oshirilgan PZ-20170926459-raqamli “Navoiyshunoslik tarixi” (XX – XXI asrlar) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universitetining 2025-yil 17-martdagi 01-4979-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha shoir hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga doir yangi ilmiy qarashlar, nazariy ma’lumotlar va yangi manbalar bilan boyitilgan;

shoir she’riyati, asosan, mumtoz (g‘azal, musammat, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit’a, chiston kabi) janrlardan tarkib topganligi, janrlar tizimida mumtoz an’analar davomiyligi bilan bir qatorda, novatorlik belgilari ko‘zga tashlanishi, xususan, g‘azalning shakliy-poetik jihatdan g‘azali muvashshah, g‘azali qo‘shmuvashshahi ta’rix, g‘azali mushoira, g‘azali zulqofiyatayn, g‘azali zulradifayn singari ko‘rinishlari mavjudligi aniqlangani, ularning janr talablariga mutanosibligi, mumtoz shoirlar ijod namunalari bilan uyg‘un jihatlari va o‘ziga xoslik masalalari ochib berilgani haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universitetining 2021-2024-yillarga mo‘ljallangan PZ-201912258-raqamli O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universitetining 2024-yil 26-yanvardagi 04/1-182-

sonli ma’lumotnomasi). Natijada platforma yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan, foydalanuvchilarga qulaylik yaratilgan;

Chustiy ijodining asosini tashkil etuvchi she’rlar ishqiy, axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy (publitsistik), hajviy yo‘nalishdagi mavzular doirasida tasniflangan, shoir she’riyatida ishqiy mavzu yetakchilik qilganligi bois timsollar tizimida asosiy o‘rin tutuvchi oshiq, ma’shuqa, raqib obrazlari va ularning zamon bilan hamnafas tarzda transformatsiyaga uchrashi dalillangani, ijodkor devonlaridagi “topilma” baytlar tahlili orqali shoirning ma’naviy va lafziy san’atlardan foydalanish mahorati, uslubiy o‘ziga xosligi, qofiya va radif qo‘llash borasidagi an’anaviylik va novatorlik xususiyatlari asoslanganiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanalining 2025-yil avgust oyida to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilgan “Mahalla” radiosi “Adabiyot gulshani” dasturini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 6-avgustdagi 29-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu eshittirish uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 12 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish e’lon qilingan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 148 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ijodkor shaxsiyati va poetik dunyoqarashi”** deb nomlangan birinchi bobi ikki faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi faslida **“Chustiy ijodining o‘rganilishi va shoirning ilmiy-ijodiy biografiyasi”** xususida fikr yuritilgan. Bunda Chustiyning hayoti hamda ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ikki tasnifda berilgan: 1. *Muayyan davr adabiyoti va she’riyati xususiyatlari o‘rganilgan ishlarda Chustiyga munosabat masalasi.* Bu guruhga I. Abdulloh, A. Xalilbekov, A.Qayumov, L.Qayumov, H.Homidiy, M.Ma’murov, Sh.Rahmonova, S.Shomurodovalarning falsafa doktori, G.Boltayevaning doktorlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin.

*2. Chustiy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar***.** Mazkur guruhga esa I.Sulton, Sh. Yusupov, M. Nurmatov, U.Yusupov, M.Xo‘jayev, M. In’om, H. Orifiy, M. Ma’murov, Z. Dehqonova singari olimlarning shoir devonlariga yozgan so‘zboshilari, maqola va taqrizlarini kiritish mumkin.

Binobarin, taniqli adabiyotshunos olim Hoji Ismatulloh Abdulloh “Markaziy Osiyoda Islom madaniyati”[7] nomli kitobining 6-bobida Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan 85 ta adib, shoir, tilshunoslar haqida ma’lumotlar bergan. Jumladan, mazkur bobda aruznavis shoir Chustiyning hayotiy va ijodiy faoliyatiga ham qisqacha to‘xtalib o‘tgan. A.Xalilkekovning ilmiy tadqiqoti[8]da Chustiy tarjimayi holidan tashqari teran ilmiy kuzatishlar ham mavjud. Jumladan, olim shoirning g‘azallari mavzu jihatidan rang-barang ekanligi, ularda “abadiy mavzu – muhabbat mavzusi nihoyatda chiroyli, o‘ynoqi va yorqin” kuylanganligi, shu bilan birga, “el ishqi, yurt muhabbati shoir g‘azallarining asosiy va yetakchi mavzularidan”ligi, ayniqsa, urush davrida yaratgan g‘azallarida adib vatanparvarlik g‘oyalarini kuchli ifoda” etganligi, “favqulodda topib qo‘llangan tashbehlar, istioralar shoir hikmatlari ta’sir kuchini yanada oshir”ganligini ta’kidlaydi.

“Namangan adiblari” risolasi[9] mualliflari – adabiyotshunos olimlar H.Homidiy va M.Ma’murovlar Chustiyning kichik tarjimayi holini qayd etish asnosida bir qator she’riy tizmalarining e’lon qilinganligini, ijod namunalarining aksariyatida pandnoma ruh ustuvor bo‘lganligini, shoirning tarjimachilikda ham barakali ijod qilganligini, xususan, Sa’diyning “Bo‘ston” asari Chustiy tarjimasida o‘ziga xos tarzda amalga oshganligini e’tirof etadilar.

Sh.Rahmonovaning “XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida aruzning poetik shakl va mazmun takomilidagi o‘rni” nomli dissertatsiyasi[10] Chustiy ijodining o‘ziga xos qirralarini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishni boshlab bergan dastlabki tadqiqot sifatida e’tiborga molik. Olima o‘z tadqiqotida XX asr ikkinchi yarmida yaratilgan devonlarning, xususan, Chustiy devonlarining ham vazn xususiyatlarini o‘rgangan.

S.Shomurodova o‘z dissertatsiyasi[11]da Nihoniy, Habibiy, Chustiy, Charxiy, Sobir Abdulla, Nojiy, E.Vohidov kabi shoirlarning devonlarini tadqiqotning obyekti sifatida tahlilga tortgan. Lekin olima Chustiyning “Ko‘ngil tilagi” nomli devonining janr tarkibini qisman o‘rganish bilangina cheklangan.

Adabiyotshunos G.Boltayevaning tadqiqoti[12]da XV-XXI asr o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyatida muxammas janri genezisi va badiiy takomili xususiyatlarini ochib berish jarayonida shoirning “Kimni izlarsiz?”, “Vorislaring

---

[7] Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 262.

[8] Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. Илмий тадқиқот. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2007. – Б. 228-235.

[9] Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Наманган адиблари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 65-67.

[10] Ш. Раҳмонова. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеъриятида арузнинг поэтик шакл ва мазмун такомилидаги ўрни : Филол. фан. фалс. докт. (PhD) … дисс. – Тошкент, 2020. – 157 б.

[11] Шомуродова С. XX аср ўзбек адабиётида девончилик анъанаси: мавзу, таркиб, вазн ва бадиий санъатлар: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) … дисс. – Самарқанд, 2022. – 143 б.

[12] Boltayeva G. O‘zbek she’riyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili: Filol. fan. dokt. (DSc) … diss. – Toshkent, 2024. – 266 b.

biz”, “Mening o‘lkam” nomli tab’i xud muxammaslari hamda “Yozalar” nomli Fuzuliy g‘azaliga taxmis muxammasi muayyan ilmiy muammo doirasida tahlilga tortilgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Chustiy devonlari[13]da jami 107 ta muxammas mavjud bo‘lib, adabiyotshunos “Hayotnoma” devoni tarkibidagi ayrim muxammaslarnigina tadqiq etish bilan cheklangan, xolos.

Aruznavis Chustiy ijodini o‘rganish uning hayotlik chog‘idanoq boshlangan edi. She’rlari yuzasidan bildirilgan turli-tuman munosabatlar, ular haqidagi bahslar, maqolalar bunga dalil bo‘la oladi. Xususan, Chustiy ijodi maxsus o‘rganilgan tadqiqotlar sirasida A.Qahhorning tanqidiy maqolasi[14] alohida xarakterga ega. Munaqqid adabiy jarayonning zukko kuzatuvchisi sifatida Chustiyning ilk ijod namunalariga munosabat bildiradi. Adabiyotshunos I.Sultonovning Chustiy haqida muayyan ma’lumotlar beruvchi kuzatishlari mavjud bo‘lib, olim “Chustiy haqida so‘z” nomli maqolasi[15]da Chustiyning zabardast g‘azalnavis shoir ekanligi, g‘azallarining mashhurligi-yu hozirjavob ijodkorligini alohida e’tirof etgan. Sh. Yusupovning “Xalqqa baxshida ijod”, “Yurakdagi gaplar”, “Qirq yillik qadrdon”, “Kuyarman otashi hijron aro…” nomli maqolalari[16] Chustiyning hayoti, ijodiy laboratoriyasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ushbu faslda M. Nurmatov, M. Inomxonov, H. Orifiy, M.Xo‘jayev, M. Ma’murov, Z. Dehqonova, M.Zohidova ishlariga ham munosabat bildirilgan. Shunga qaramay, yuqoridagi tadqiqot va maqolalarda shoirning to‘liq ilmiy-ijodiy biografiyasi, adabiy merosi va uning ko‘lami, tasnifi xususida batafsil fikr yuritilmagan. Keyingi izlanishlar jarayonida shoir ijodi bilan bog‘liq ilmiy jamoatchilikka hali ma’lum bo‘lmagan yangi materiallar mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Xususan, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida Nabixon Xo‘jayev – Chustiyning arxivi mavjud bo‘lib, u 1501 nomdagi hujjatlardan tarkib topgan. Mazkur materiallarga hozirda ham faoliyat yuritayotgan 80 yoshli bo‘lim xodimasi Sharafutdinova Rahima Shamsutdinovna tomonidan 1988-1989-yillarda 148 varaqli maxsus ilmiy tavsif yozilgan. Bu hujjatlar Chustiyning o‘z qo‘li bilan arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvida bitgan asarlarining avtograf nusxalari, shuningdek, eski lotin grafikasidagi va hozirgi kirill alifbosidagi, umuman olganda, uch xil yozuvdagi ijod mahsullaridan iborat bo‘lib, 20 ga yaqin maxsus yig‘majildlarda saqlanadi. Yana shuni ham qayd etish lozimki, Chustiy arxivida hali ilmiy tavsif berilmagan yana bir qator manbalar ham mavjud. Ilmiy tavsif yozilgan materiallarning aksariyati arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvidadir. Ular parokanda varaqlarga, karton muqovali, oddiy katak va yo‘llik daftarlarga, ba’zilari bloknotga havorang, binafsharang

[13] Qarang: Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 448 б. ; Чустий. Садоқат гуллари. Девон. – Тошкент: Внешторгиздат, 1992. – 344 б. ; Чустий. Кўнгил тилаги. (Девон). –Тошкент: Фан, 1994. – 264 б.

[14] Қаҳҳор А. Поэзия юксак санъатдир. Асарлар. Олти томлик. Олтинчи том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 253-263.

[15] Султон И. Чустий ҳақида сўз // Ўзбекистон адабиёти ва санъати,1996. 12 июл, – №28 (3365)

[16] Юсупов Ш. Халққа бахшида ижод. Чустий. Ҳаётнома. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 3-12.; shu muallif. Юракдаги гаплар // Инъомхон М. Ёд этингиз камтарин Чустийни ҳам… (хотиралар, эсдаликлар, чоп этилмаган назмлар). – Наманган, 1994. – Б. 47-52.; Қирқ йиллик қадрдон. Тарих ва адабиёт бўстони. – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 653-667.; Куярман оташи ҳижрон аро… // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2004. – №25. – Б. 1-2.

siyohda, shuningdek, qalamda yozilgan, ayrimlari mashinkada terilgan. Ba'zi ijod namunalari ham arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvida, ham kirill yozuvida berilgan.

Arxivdagi mavjud materiallar shoirning lirik nazmlari, ayrim dostonlari, tarjimalaridan, Chustiy g'azallariga boshqa shoirlar tomonidan bog'langan muxammaslardan tashkil topgan. Ularning orasida shoir devonlari va she'riy to'plamlarida e'lon qilinmagan 20 ga yaqin she'rlar ham mavjud bo'lib, ularga dissertatsiyada alohida tavsif berilgan.

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida akademik Aziz Qayumovning arxivi materiallari ichidan Chustiy va G'afur G'ulomning "Jon, o'g'lim" nomli mushoira-g'azalining kompyuterda terilgan matnini topdik. Oddiy oq sahifaga kirill alifbosida yozilgan mazkur she'r matni ostida qora siyoh bilan ruchkada bitilgan quyidagi ma'lumot ilova tarzida keltirilgan: "*1942. Moskvada yozilgan va G'.G'.ning urushga ketgan o'g'li Jo'raxonga bag'ishlangan*". Mazkur g'azal aslida G'afur G'ulomning "Mukammal asarlar to'plami"[17]ning 2-tomiga, Chustiyning "Hayotnoma" devoniga[18] kiritilgan, lekin ikkala nashrda ham mushoira-g'azalning qaysi bayti yoki misrasi qaysi muallifga tegishli ekanligi haqida ma'lumot yo'q. Shuningdek, U. Otajon ham "Mushoara" kitobida mazkur mushoira-g'azal haqida fikr yuritib, kim qaysi bayt yoki misrani yozgani noma'lumligini qayd etgan[19]. Arxivdan topilgan matnda esa bayt va misra mualliflari aniq keltirilgan. G'azalning matla' baytini keltiramiz:

G'afur G'ulom: Salomimni eshit, maydonda botir qahramon o'g'lim,
Salomatmiz, salomat bo'l, yasha, sog' bo'l omon, o'g'lim.
Chustiy: Jahondan mahv bo'lsin toabad mal'unlar avlodi,
Quyoshdek peshvozingga chiqib yangi jahon, o'g'lim[20]…

Shoir lirik asarlarining janriy jihatlari, mavzu mundarijasi, badiiy mahorati, umuman, ijodining o'ziga xos qirralarini tahlil etish uchun uning ijodi manbalarini izchil va puxta tadqiq etish birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Chustiy hayoti va ijodining adabiyotshunoslikda o'rganilishi, shoirning ijodiy biografiyasi, adabiy merosiga doir ayrim muhim jihatlar mazkur faslda o'z aksini topdi. Lekin muzey arxivida saqlanayotgan Chustiy bilan bog'liq hujjatlarni yanada chuqurroq o'rganish zarurati bor. Zero, bu ma'lumotlar shoir hayoti va ijodiga doir kemtik nuqtalarni yoritishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **"Shoir devonida g'azal janrining o'rni"** deb nomlangan ikkinchi faslida Chustiyning o'zi devon tuzmaganligi, shoir vafotidan so'ng uning she'rlari farzandlari tomonidan devon holiga keltirilib, nashr etilganligi haqida fikr yuritilgan.Ijodkorning "Hayotnoma", "Sadoqat gullari", "Ko'ngil tilagi" devonlari, shuningdek, "Ko'rguncha, xayr endi" she'riy to'plamining janrlar tarkibi o'rganilgan. Chustiy lirikasi g'azal, mustazod, muashshar, musaddas, muxammas,

[17] Ғафур Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн икки томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 291.
[18] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 207.
[19] Отажон У. Мушоара. Тошкент: MERIYUS, 2009. – Б. 197.
[20] A. Qayumov arxivi materiallari // O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi arxiv fondi / 164-saqlanish raqami.

tarje’band, tarkibband, murabba’, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit’a, chiston kabi janrlardagi she’rlardan iborat.

Shoir lirikasining asosini g‘azallar tashkil qiladi. Uning g‘azaliyoti, birinchi navbatda, o‘z mavzu doirasining nihoyatda keng qamrovliligi va g‘oyaviy olamining boyligi bilan xarakterlanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotshunosligida g‘azallar shakliy-poetik jihatdan 10 turga bo‘lingan. D.Yusupova g‘azallarni quyidagi turlarga ajratadi[21]: 1) oddiy yoki odatiy g‘azal; 2) g‘azali husni matla’; 3) g‘azali qit’a; 4) g‘azali musajja’; 5) g‘azali mulamma’; 6) g‘azali muvashshah; 7) g‘azali mushoira; 8) g‘azali zulqofiyatayn; 9) g‘azali zulradifayn; 10) g‘azali zebqofiya. Chustiy ijodida mazkur g‘azallarning 7 turi mavjud. G‘azalning Chustiy lirikasida uchraydigan turlari shoirning buyuk salaflari lirik merosini va ularning mahorati sirlarini puxta o‘zlashtirganidan hamda ushbu janr takomiliga munosib hissa qo‘sha olganidan dalolat beradi. O‘zbek adabiyotida g‘azallarning g‘azali musajja’ (yoki sajli g‘azal) deb nomlangan turi bo‘lib, u “asosiy qofiyadan tashqari, ichki qofiyalarga ham ega bo‘lgan g‘azaldir”.[22] G‘azalning bu turi shoirdan katta mahorat talab qiladi. Shoir umumiy qofiyadan tashqari ichki qofiyaning ham mukammalligiga erishishi kerak. Shuning uchun ham bunday g‘azallar kam yozilgan. Chustiy g‘azaliyotida ham g‘azalning bu turi miqdoran oz. Masalan, ijodkorning “Ota buyrug‘i” nomli quyidagi g‘azali 8 baytli bo‘lib, saj’ asosiga qurilgan.

1-bayt: Sher bolam quchog‘imga bir jahon bo‘lib kelgil,
Saqlagil bu gul bog‘ing bog‘bon bo‘lib kelgil.
2-bayt: Buyrug‘im shudir sanga zarra qaytma orqangga,
Yovni ot jahannamga, sen omon bo‘lib kelgil[23].

Mazkur satrlarda *jahon, bog‘bon, omon* so‘zlari asosiy qofiya sanalsa, *sanga, orqangga, jahannamga* so‘zlari esa she’rdagi ichki qofiya hisoblanadi. To‘g‘ri, ichki qofiyada saktalik (poetik nuqson) mavjud, lekin qolgan baytlarning ichki qofiyalarida bunday kamchilikka yo‘l qo‘yilmagan. Fikrimiz isboti uchun qolgan baytlarning barcha qofiyalarini keltiramiz: *osmon, jon, qahramon, shodmon, navqiron, doston* – asosiy qofiyalar; *ko‘zlik, shirinso‘zlik, yulduzlik; mumtozi, g‘ozi, rozi; banda, sharmanda, tanda; imoning, O‘zbekistoning, gulistoning; soqolimni, holimni, zolimni; malham, ildam, Rustam* – ichki qofiyalar.

Shoir g‘azalning muvashshah turida ham ijod etgan. Masalan, Chustiy o‘z do‘sti, shoir Asg‘arali, ya’ni Mavlono Charxiyga atab 70 yoshga to‘lishi munosabati bilan tabrik sifatida “Charxiyga” sarlavhali qo‘sh muvashshah yaratadi. U quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

Assalom, ey nutqi komil shoiri nozik xayol,
Nazmu nasr-u hajviya bobida nodir barkamol[24]…

Shoir devonidagi ushbu g‘azali muvashshah maxsus nasriy boshlanmaga ega bo‘lib, u quyidagi jumlalardan iborat: “*Shoiri nozik xayol, fozil-u barkamol aziz*

[21] Bu haqida qarang: Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: MALIK PRINT CO, 2021. – B. 172-181.
[22] Носиров О. ва бошқалар. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 72.
[23] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 198.
[24] Чустий. Садоқат гуллари. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992. –Б. 121.

do‘stim va birodarimdomlo Asg‘arali, ya’ni Mavlono Charxiyning yoshlari 70 ga to‘lish munosabati bilan tabrik tariqasida bu arzimas qo‘sh muvashshah bu sharafli yil tarixini abjad hisobi bilan mashq qilib manzuri nazar etish umidida taqdim etmoq kaminaga muyassar bo‘lganligidan faxrlanib cheksiz shodlik izhor etaman”. Bu g‘azali muvashshahning toq misralaridan “Asg‘arali Charxiyga”, juft misralaridan “Nabixon Chustiydan” degan so‘zlar kelib chiqadi.

Bundan tashqari bu she’rning kompozitsion tuzilishi ham o‘ziga xos shakllantirilganini kuzatish mumkin. G‘azal hajman 17 baytdan tashkil topgan bo‘lib, uning 13 bayti g‘azal-muvashshah bo‘lsa, “*Muashshah tamom*” deb yozilgan nasriy sarlavhadan keyin yana 4 baytli she’r berilgan, uning so‘nggida, ya’ni maqtasida ta’rix san’ati qo‘llangan:

Boshqadan kutma deding, ey, Chustiy, bu tarix haqin,
Bir yuz-u o‘n ikkini yetmish yashar Charxiydan ol.

Bunda ta’rix moddasi “*yetmish yashar Charxiy”* so‘zlari bo‘lib, abjad hisobi[25]ga ko‘ra, bu jumlani raqamlashtiramiz: y–10, e–10, t–400, m–40, sh–300; y–10, sh–300, r–200; Ch–3, a–1, r–200, x–600, y–10. Bu raqamlarni qo‘shsak, 2084 soni hosil bo‘ladi. Mazkur umumiy miqdordan 112 ni olib tashlasak, 1972 soni qoladi, bu esa shoir Charxiyning yubileyi nishonlangan sanani anglatadi.

G‘azali muvashshahning sinkretik tuzilishga ega bo‘lishi ko‘p asrlik mumtoz adabiyotimiz tarixida hali kuzatilmagan noyob badiiy hodisadir. Bu hol Chustiyning an’anaviy mumtoz she’riy janrlarda ijod qilganda ham o‘ziga xoslikka, yangilikka intilganidan darak beradi. O‘rni kelganda, shuni ham aytish kerakki, shoir lirikasida muvashshahning faqat g‘azal shakli[26] uchraydi xolos.

Dissertatsiyada shoir ijodidagi g‘azali mushoira, g‘azali zulqofiyatayn, g‘azali qit’a, g‘azali zulradifayn she’rlar tahlil etilib, fikrlar misollar bilan dalillangan.

Bobning “**Devonning janr xususiyatlari**” faslida devondan joy olgan mustazod, masnaviy, musammat, ruboiy, qit’a, tuyuq, chiston kabi janr namunalari tahlil qilinib, shoir ijodining an’anaviy va individual xususiyatlari tadqiq etilgan. Chustiy ijodida **musammatlar** ham yetakchi o‘rin egallaydi. U musammatning murabba’, muxammas, musaddas, musamman, muashshar turlarida yuksak namunalar yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

Shoir devonlarida 107 ta muxammas mavjud. Keyingi izlanishlar hosilasi o‘laroq olim I.Madg‘oziyev Chustiyning Cho‘lpon g‘azaliga muxammasi mavjudligini aniqlagan[27]ini e’tiborga olganda mazkur miqdor 108 tani tashkil etadi. O‘zbek adabiyotida muxammaslarning ikki turi mavjud. Birinchi turkum muxammaslarga shoir o‘zi alohida bitgan muxammaslar kirsa, ikkinchi turkum muxammaslar boshqa shoirlar g‘azallariga bog‘lab yozilgan muxammaslardir. Shu jihatdan olib qaraganda, Chustiy muxammaslarining salmoqli qismini mustaqil muxammaslar tashkil etadi. Chustiy muxammaslari uning badiiy salohiyati yetuk

[25] Бу ҳақида қаранг: Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Навоий университети НМУ, 2019. – Б. 92-93.

[26] Muvashshahning yana qasida, qit’a, ruboiy, muammo, musammat, mustahzod shakllari ham mavjud. Qarang: Muydinova A. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik: an’ana va individuallik: Filol. fan. bo‘yicha fal. dokt. (PhD) … diss. – Toshkent. 2023. – B. 120.

[27] Qarang: Чўлпон (тадқиқот ва материаллар). Тузувчи ва нашрга тайёрловчи: Искандар Мадғозиев. – Тошкент: Муҳаррир, 2022. – 260 б.

ijodkor ekanligini tasdiqlaydi. Shoir muxammaslarining mavzu doirasi nihoyatda keng va rang-barang. Chunonchi, u muxammaslarida dunyoviy ishqni kuylaydi. Oshiqning mahbuba visoliga yetish orzusida chekkan alam-iztiroblarini, ma'shuqa go'zalligini, hijron lavhalarini mahorat bilan tasvirlaydi:

Tongning shamoli esdi, bog'landi jona zulfing,
Dil soziga chamanda soldi tarona zulfing,
Husningni qurshab oldi ilgida shona zulfing,
O'xshar qilich ko'targan sohibqirona zulfing,
Chunkim jahonda topdi shuhrat yagona zulfing[28].

Shuningdek, shoir muxammaslarida axloq-odob masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. U Vatan, tinchlik, do'stlik, xususan, xalqlar do'stligi kabi mavzularda muxammaslar bitdi. Yana shuni ham aytish kerakki, uning muxammaslarida zamonaviy ruh bo'rtib turadi.

Chustiyning boshqa shoirlar g'azallariga bog'lagan muxammaslari ham o'ziga xos. Bu turdagi muxammas talabiga binoan g'azalga bog'langan baytlar shakl jihatidangina emas, balki mazmun, g'oyalar ko'lami jihatdan ham g'azal baytlariga muvofiq bo'lmog'i lozim. Chunonchi, adabiyotshunos Odil Nosirov bu haqida shunday yozgan: "… musammatlarning muvaffaqiyatli chiqishi uchun birgina talantning o'zi kifoya emas, oldingi g'azal avtori bilan keyingi musammat avtori o'rtasida mushtarak dunyoqarash, estetik pozitsiya, ijtimoiy – siyosiy konsepsiya bo'lmog'i zarur. Faqat shundagina musammat avtori g'azal avtori fikrlarini mantiqan davom ettirishi, temaning oldingi g'azalda ochilmay qolgan tomonlarini o'z davri tomonlari asosida yoritishi mumkin. Natijada har ikki shoir she'ri o'rtasida shunday uyg'unlik yuzaga keladiki, bunday she'r ikki avtor tomonidan emas, balki bir shoir tomonidan yozilgandek tuyuladi".[29] Shoir muxammaslarida ana shunday fikrlararo uyg'unlikni, dunyoqarashlardagi birlikni ko'ramiz. Chustiy o'zidan oldingi shoirlardan Alisher Navoiy (2 ta), Ahmad Yassaviy (1 ta), Fuzuliy (2 ta), Nodira (1 ta), Muqimiy (2 ta), Furqat (1ta) va zamondoshlaridan Cho'lpon (1ta), Sobir Abdulla (1ta)larning g'azallariga muxammaslar bog'lagan.

O'tmishdagi buyuk ustozlari bilan ijodiy musobaqaga kirishgan shoir butun iste'dodini ishga soladi, ularning munosib shogirdi ekanligini namoyish qiladi. Bu hol Navoiyning:

Meni sargashta jismim dog' ila qon lolazor etmish,
Quyun yoxud to'kulgan lolazor ichra gulzor etmish[30]

va

Qaro ko'zum kel-u mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosiga mardum kibi vatan qilg'il[31],-

matla'li, Fuzuliyning:

Har kitobakim labi la'ling hadisin yozalar,
Rishtai jon birla ishq ahli oni sherozalar[32], -

[28] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 382.
[29] Носиров О. ва бошқалар. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 117.
[30] http://navoi.natlib.uz:8101/uz/xazoyin_ul_maoniy_garoyib_us_sigar_uchinchi_tom/gazallar/gazallar_201_300/
[31] https://tafakkur.net/qaro-kozum/alisher-navoiy.uz
[32] Фузулий М. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – Б. 123.

matla’li, Nodiraning:
Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz[33], -
matla’li, Furqatning:
Bir qamarsiymoni ko‘rdum baldai Kashmirda,
Ko‘zlari mas’hur-u yuz jodu erur tas’hirda[34], -

matla’li eng mashhur, eng ta’sirchan g‘azallariga qilingan muxammaslarda, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Nodira g‘azaliga bog‘langan muxammas bunga yorqin dalildir:

Shu’la bermas sham’ husni yorsiz,
Boda kayfi bo‘lmag‘ay dildorsiz,
Ishq o‘tini ko‘rmadim bemorsiz
Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz[35].

Chustiy boshqa muxammaslarida ham badiiy kashfiyot darajasiga erishib, o‘zining chinakam san’atkorligini namoyish etdi.

Shoir kichik lirik turdagi ruboiy, qit’a, tuyuq, chiston janrlarida ham qalam tebratdi. Ayniqsa, ijodkorning chistonlari alohida e’tiborga molik. O‘zbek adabiyotida ilk chistonlarni Alisher Navoiy ijod etgan bo‘lib, ularning miqdori 10 tani tashkil etgan va bu chistonlar “Xazoyin ul- maoniy” kulliyotidagi “Badoye ul - vasat” devoni[36] tarkibidan o‘rin olgan. Mumtoz an’analar bag‘rida shakllanib, badiiy takomil topgan Chustiy ijodiyotida 6 ta chiston mavjud bo‘lib, “Hayotnoma” devoni tarkibiga kiritilgan. “Davot va qalam”, “Qalam va qog‘oz”, “Quyosh”, “Chok mashinasi”, “Tuhmat”, “Mix” nomli chistonlar shular jumlasidandir. Mazkur chistonlar aruz tizimida bitilgan, ikkitasi (“Davot va qalam”, “Qalam va qog‘oz”) bir baytli va to‘rttasi ikki baytli (“Quyosh”, “Chok mashinasi”, “Tuhmat”, “Mix”) she’rlar hisoblanadi.

Birovni yuziga nayzam urib jafo qilaman,
Bu hikmatim bila ko‘p maqsadim ado qilaman[37].

Javobi qalam va qog‘oz bo‘lgan ushbu chiston fard shaklida bitilib, mujtassi musammani maxbuni mahzuf (ruknlari va taqti’i: mafoilun, failotun, mafoilun failun V-V -/ VV- -/V-V -/VV-) vaznidadir. Muallif tashxis, tashbeh, istiora she’riy san’atlari orqali o‘quvchini taxayyul olamiga yetaklaydi. Shoirning yuqoridagi chistonlarini o‘qir ekanmiz, daf’atan xayolimizga so‘z zargari Alisher Navoiyning “Qalam” chistoni keladi, albatta:

Ne lo‘lidurki, chun hangoma tutsa,
Qadam boshtin qilib tortar navozir[38].

Turkiy chiston asoschisi Navoiyning ushbu misralar bilan boshlanuvchi chistoni 6 baytli va qit’a tarzida qofiyalangan bo‘lib, hazaji musaddasi mahzuf (ruknlari va taqti’i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V - - -/ V- - -/ V - -) vaznida

[33] https://tafakkur.net/yorning-vasli-emas-ozorsiz/nodirabegim.uz
[34] https://tafakkur.net/bir-qamar-siymoni-kordim/zokirjon-xolmuhammad-ogli-furqat.uz
[35] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 392.
[36] Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 5-жилд. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.517-521.
[37] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 436.
[38] Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 5-жилд. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 517.

yozilgan. Chistonnavis savol bilan boshlangan dastlabki misralarda qalamning shakliy tuzilishiga oid xususiyatlarni tilga olsa, keyingi baytlarda esa uning bajaradigan vazifalariga birma-bir to‘xtaladi va kitobxonga jumboqning javobini topishi uchun muayyan sharoit yaratadi. Badiiy mushohadalarga boy, zuvalasi pishiq chistonlari bilan Navoiy chistonchilikda o‘ziga xos maktab yaratdiki, bu dargohdan Chustiy ham ma’lum ma’noda saboq oldi. Shoirning “Tuhmat” so‘zi pinhon tutilgan ma’rifiy ahamiyatga molik ushbu chistoni hazaji musammani solim (ruknlari va taqti’i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V - - - / V- - - / V - - - / V- - -) vaznida bitilgan:

Tuxumdan chiqdi bir jo‘ja qanoti mingdan ortig‘roq,
Balandparvoz etib, qo‘ydi tuxum har joyga u ersiz.
Iniga sig‘madi qaytib, jahonda darbadar bo‘ldi,
Bu maxluqni topinglar, o‘ldiringlar, tug‘masin hargiz[39].

Mazkur chiston qit’a (a-b-c-b) tarzida qofiyalangan. Bilamizki, tuhmat birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o‘ylab chiqarilgan asossiz da’vo, bo‘hton hisoblanadi. Insoniyat orasida ana shu tuhmatning yuzaga kelishi va tez tarqalishini ijodkor moddiylashtirib, babiiy obraz darajasida talqin etadi. Muallif jumboqlanayotgan obyekt haqida tushuncha, tasavvur uyg‘otishga kirishar ekan, mingdan ortiq qanotga ega jo‘janing tuxumdan chiqishi, ko‘klarga uchishi, tuxum qo‘yib, ko‘payishi, dunyolarga sig‘may qolishini ifoda etadi. Misra boshida “jo‘ja” deb atalayotgan obyekt (tuhmat) she’r yakunida “maxluq” darajasida gavdalantiriladi. Tabiiyki, bunday ohoriy lavhalar kitobxonni hayratlantirmay qolmaydi, albatta. Qolaversa, shoir tanosub, tashxis, tadrij kabi she’riy san’atlarni o‘rinli qo‘llash orqali ham o‘z mahoratini namoyon eta olgan.

Ishning ikkinchi bobi **“Shoir she’riyatining mavzular ko‘lami va timsollar tizimi”** deb nomlangan. Bobning birinchi faslida **“Chustiy g‘azaliyotining mavzuviy tasnifi va ularda ijtimoiy voqelikning yangilanishi”** masalasi yoritilgan. Unda Chustiy lirikasining mavzuiy tasnifi tahlil etilgan.

Chustiy lirikasi tuyg‘ularga, chuqur hissiyot tasviriga, yangi va ko‘lamdor fikrlarga, axloqiy-ta’limiy umumlashmalarga boyligi bilan xarakterlidir. Chustiy lirikasining mavzular olami ham janrlar tarkibi kabi nihoyatda xilma-xil. Shoir Jamol Kamol bu haqida quyidagi fikrlarini bildiradi: “Chustiy g‘azallari mavzu e’tibori bilan rang-barang, tasvir qamrovi keng. Yolg‘iz yor vasli, ishq dardi, bodaning kayfiyati emas, vatan sevgisi, jamiyat hayoti, zamon og‘riqlari, asr muammosi aks etgan bu manzumalarda”[40]. Darhaqiqat, shoir lirikasi nafaqat ishq-muhabbat va axloq-odob mavzuidagi, balki ijtimoiy hayotning turli dolzarb masalalariga bag‘ishlangan she’rlari bilan ham diqqatga sazovordir. Bu jihatdan shoir she’rlarini shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin: 1) ishqiy mavzudagi she’rlar; 2) axloqiy mavzudagi she’rlar. 3) ijtimoiy (publitsistik) mavzudagi she’rlar. Mazkur mavzulardagi she’rlar asrlar tajribasi va an’anasiga ega bo‘lgan Sharq mumtoz she’riyati durdonalaridan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan oziqlangan.

[39] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 436.
[40] Камол Ж. Чустий ва унинг ижоди ҳақида // Ёд этингиз камтарин Чустийни ҳам. Шоир Чустий ижодига чизгилар, хотиралар, эсселар, бағишловлар. Масъул муҳаррир: М.Зоҳидова. – Тошкент: MASHHUR-PRESS, 2020. – Б. 92.

Chustiy lirikasining aksariyat qismi ishq-muhabbat mavzusidagi she’rlar ekan, ularda yor va uning jamoli tasviri, uning jafokorligi, haqiqiy oshiqqa shafqatsizligi, olijanob, yuksak muhabbatga munosib bo‘lmagan raqibga mehribonligi, unga muhabbat qo‘yganligi va shuning uchun chin oshiqning alam va rashkdan yonishi kabilar tasvir etilgan. Shoir ijodidagi ishq-muhabbat ko‘pincha ijtimoiy, umumiy xarakterga ega. Ijodkor o‘z davrining ko‘zi va qulog‘idir. Bas, shunday ekan, shoirning “men”i, umuman, insonlar, zamondoshlar, g‘azalda tasvir etilayotgan obrazning kechinma va kayfiyatlaridir.

Ishqiy she’rlarda Chustiy har qachon ham bevosita o‘z intim kayfiyatlarini ifodalamay, fikrini boshqa oshiq va ma’shuq tilidan bayon qilgan, boshqacha aytganda, o‘zini sevgi taronachisi deb hisoblagan. Uning she’rlarida mumtoz adabiyotimizda bo‘lgani kabi uch an’anaviy obraz (oshiq, ma’shuqa, raqib) bo‘lib, ulardan oshiq eng asosiy obrazdir. Shunday ekan, shoir asosiy obrazining qay tarzda tasvirlanishiga e’tiborimizni qaratganimizda, Maqsud Shayxzodaning mana bu fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “oshiqona g‘azallarda oshiq obrazi doimo barcha imkoniyatlardan mahrum, benavo, ojiz, sodda, go‘l, aqli past, xoksor bo‘lib tasvirlanadi”[41]. Oshiq obraziga xos yuqoridagi barcha xususiyatlar Chustiy g‘azallaridagi oshiq obraziga ham tegishlidir. Lirik qahramon ma’shuqaga ko‘zi tushgach, qalbi mavjlanib, g‘azal bitmoq istaydi:

Bir go‘zal ko‘rdim, yozolsam, u go‘zal bo‘lgay g‘azal,
Yo go‘zal bo‘lgay g‘azal, yoki g‘azal bo‘lgay go‘zal.
Yangi bir she’rni o‘qib ko‘rdim tilim bo‘ldi shirin,
U go‘zal yoki quyibdurmi siyohdonga asal[42].

G‘azal aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, qofiyalari g‘azal, go‘zal, asal so‘zlaridir. Shoir birinchi baytda tadrij, tardu aks san’atlarini, ikkinchi baytda esa mubolag‘a, tajohuli orif san’atlarini mahorat bilan qo‘llab, poetik mazmun ta’sirchanligini oshirgan.

Chustiy ijodidagi ishqiy g‘azallarning ma’lum bir qismi mahbuba ta’rif-tavsifiga bag‘ishlangan. “Ta’rif bilan tavsifning qo‘shilishidan iborat bo‘lgan vasf tipidagi g‘azallarning asosiy obyekti ko‘pincha ma’shuqa siymosi, uning butun qiyofasi hisoblanadi”[43]. Shoirning bu boradagi mahorati shu qadar yuqoriki, uning nazaridan ideal mahbuba qiyofasining birorta ham jihati chetda qolmagan. Bir g‘azalda ma’shuqaning barcha tashqi sifatlari izchil tavsif qilinsa, boshqa bir she’rda uning ayrim unsurlariga e’tibor qilinadi. Shoir she’rlarida ma’shuqa husnda barkamol va aqlda betimsol malak sifatida gavdalanadi. Mana bu g‘azalda ijodkor asriy an’analarga ergashadi, lekin ularni aynan takrorlamaydi, o‘zgacha tutum qo‘llab, o‘ziga xos badiiy lavha yaratadi:

Qizil gul g‘unchasidan ham go‘zal qizga ishim tushdi,
“Labing nega qizil?”– desam, dedi: “Hozir tishim tushdi”[44].

Axloq, ta’lim-tarbiya shoir she’rlarining asosiy markazida turuvchi jihatlardan. Yosh avlod tarbiyasi masalasi hamma asrlarda barcha xalqlar adabiyotida katta o‘rin tutgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotida ham didaktik asarlar juda ko‘p yaratilgan. Chustiy ham axloq-odob

[41] М.Шайхзода. Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. Ғазал мулкининг султони. – Тошкент: Ғафур.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 31.
[42] Чустий. Садоқат гуллари. Девон. – Тошкент: Внешторгиздат, 1992. – Б. 114.
[43] Исҳоқов. Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 58.
[44] Чустий. Сайланма. – Тошкент: “Адабиёт”, 2024. – Б. 86.

masalalari bilan bog‘liq ko‘plab she’rlar yaratgan. Uning she’rlarida yangicha fikrlovchi lirik qahramon – zamonaga ziyraklik bilan boquvchi iqtidorli inson, davr kishisi, yuksak xulq-atvor egasi namoyon bo‘ladi.

Bilamizki, badiiy so‘z – buyuk qurol. Shuning uchun ham buyukki, so‘z bilan odamlarni birlashtirish yoki ularni bir-birlari bilan yuz ko‘rmas qilib yuborish mumkin. Chustiy nazdida ham eng muhim narsa to‘g‘riso‘zlikdir:

Har so‘zki desang, bo‘lsin ul insonga munosib,
So‘zlab netasan bo‘lmasa davronga munosib[45] .
yoki
Qayta-qayta so‘zlasang el ichra donolar so‘zin,
Bo‘lsa so‘z o‘z o‘rnida hargiz xato bo‘lmas emish[46].

Axloqiy-ta’limiy mavzudagi g‘azallarining taraqqiyotida ham xalq og‘zaki ijodi boy bir manba, ijodkorlik maktabi bo‘lib xizmat qildi. Shoir maqol va hikmatli so‘zlar, xalq ta’birlarini ba’zan aynan va ba’zan she’riy misralarning poetik talabiga muvofiqlashtirib qo‘llaydi. Ayrim g‘azallarida bir emas, bir necha maqollar istifoda etadi:

Yoningdan ketsa mayli, ikki yuzli ba’zi yolg‘on do‘st,
Azizlar deydilar: do‘ppi topilgay, bosh omon bo‘lsa.
El ichra maqol bor, o‘sma ketgay qosh qolur derlar,
Chiroy o‘zgarmagay hech, o‘sma ketsa, qosh omon bo‘lsa[47].

Ravshanki, ijodkor maqol va hikmatli so‘zlar bilan o‘z g‘azallarining g‘oyaviy mazmunini boyitgan, badiiy qimmatini oshirgan.

Chustiy she’riyatidagi ijtimoiy ohanglar haqida dissertatsiyada batafsil to‘xtalingan.

Bobning **“Ijodkor she’riyatidagi poetik obrazlar takomili”** deb nomlangan ikkinchi faslida ijodkor lirikasida istifoda etilgan timsollar tizimi haqida bahs yuritilgan. Chustiyning aksariyat she’rlari, xususan, g‘azallari dunyoviy ishq mavzusidadir. Shundan kelib chiqib, shoir ijodida lirik qahramon shoir bilan birga oshiq, mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi. Bulardan tashqari ma’shuqa va raqib obrazlari ham salmoqli o‘rin egallaydi.

*Oshiq timsoli***.** Chustiy ijodidagi asosiy lirik qahramon oshiqdir. Bu oshiq aynan shoirning o‘zi emas, ammo oshiq san’atkor his-tuyg‘ularini, o‘y-fikrlarini, qarashlarini ifodalaydi. Shoirning quyidagi baytida boshidan ko‘p hayot tajribalarini o‘tkazgan, muhabbatda hijron azobini-yu visol zavqini totib ko‘rgan keksa mutafakkir obrazi ko‘zga tashlanadi. Oshiq hijron azoblari, ishq o‘tidan malomat qilsa, u haqiqiy oshiq emas, agar ko‘ngilda gulxan yonmas ekan, u pok (ravshan) bo‘lmaydi, deydi mutafakkir:

Ishq o‘tidan kimki shikoyat aylasa, oshiq emas,
Bo‘lmagay ravshan ko‘ngil, gar unda gulxan yonmasa[48].

Oshiq Sharq adabiyotida an’anaviy va o‘lmas timsollardan biridir. Ishqiy she’rlar, xususan, g‘azallar yaratila boshlangan vaqtdan beri oshiq obrazi an’anaviy obraz bo‘lib kelgan. Oshiqqa xos fazilatlar, u bilan bog‘liq tasvir vositalari ham asrlar osha she’rlardan she’rlarga ko‘chib yurgan. Chustiy lirikasidagi oshiq obrazi ham o‘zida ana’anaviy xislatlarni mujassamlashtirgan. Shoir an’ana bo‘lib

[45] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 65.
[46] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 320.
[47] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 50.
[48] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 36.

kelayotgan she’riy san’atlardan unumli foydalangan holda yangi fikr aytishga, uni o‘ziga xos obrazli ifodalashga harakat qiladi. Bu o‘rinda Navoiy lirikasini tadqiq etgan professor Abduqodir Hayitmetovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “… oshiq - Navoiy ko‘p jihatdan o‘z davridagi oshiq, o‘zida ma’lum darajada shu davr ruhini aks ettiradi”.[49] Bu fikrlarni Chustiy lirikasidagi oshiqqa nisbatan ham qo‘llashimiz mumkin. Shoir yaratgan oshiq obrazi aksariyat hollarda an’anaviy oshiq xususiyatlarini o‘zida jam etgan bo‘lsa, ayrim hollarda zamon, davr oshig‘ining yaxlit ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lgan. Chustiy ko‘plab publitsistik g‘azallarida o‘z davridagi oshiq timsolini gavdalantirgan. Ma’lumki, 1941-1945-yillarda xalqimiz nemis bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan. Quyidagi g‘azalda ana shu urushda mardonavor jang qilayotgan, o‘z ma’shuqasidan maktub olib va unga javob yo‘llayotgan oshiq obrazi yaratilgan:

Yetib keldi xatingiz, yaxshi soatda salomingiz,
Keturdi gavharistondan xabar har bir kalomingiz[50].

Ma’shuqa timsoli. Ma’shuqa obrazi bevosita oshiq obrazi bilan bog‘liq, unga hamohangdir. “Ma’shuqa obrazi asosiy lirik qahramon – oshiq obrazining hayot-mamot tayanchidir. Bu obrazning mohiyatini tushunmasdan turib, oshiq obraziga to‘g‘ri baho berish mumkin emas”.[51] Mazkur obraz oshiq obrazi kabi badiiy adabiyotda qadimdan mavjud bo‘lib, an’anaviy obraz hisoblanadi. Shoirlar g‘azallarida yorni ta’rif-tavsif etar, go‘zalligini maqtashar, bevafoligidan zorlanar, visolini orzu qilishar edi. Chustiy lirikasida dunyoviy ishq kuylangan bo‘lib, ularda hayotiy, real ma’shuqa timsoli gavdalangan. Shoir ma’shuqa haqida so‘z yuritar ekan, avvalo, uning tashqi go‘zalligini: yuz, ko‘z, qosh, kiprik, lab, og‘iz, soch, qomat kabi a’zolarini ta’riflaydi. Ma’shuqada ikki asosiy xususiyat ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, ma’shuqa tengsiz go‘zal, bu fazilati uning sevilishiga va mag‘rurligiga sabab. Ikkinchidan, ma’shuqa behad bemehr, bevafo, bu uning ichki olamini aks ettiradi. Har ikkala xususiyat bir-biri bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ma’shuqaning bemehrligi, bevafoligiga birinchi xususiyat – tashqi go‘zalligi sababdir.

Chustiy lirikasidagi ma’shuqa obrazi yuqoridagi umumiy xususiyatlar bilan birga, farqli jihatlarni ham o‘zida mujassam etgan, ya’ni shoir ijodida ma’shuqa timsoli paxtakor, pillakor, g‘allakor qiz sifatida ham namoyon bo‘ladi. Endi ma’shuqa nafaqat go‘zalligi bilan, balki ilg‘or terimchiligi, pillakorligi va g‘allakorligi bilan ham oshiq dilini o‘rtaydi, iztirobiga iztirob qo‘shadi:

Oltindan ortiq har dona pillang,
G‘allangni to‘yga savg‘o qilibsan.
Hosillar olding behad – hisobsiz,
Paxta ishini a’lo qilibsan[52].

Yuqoridagi misralarda gavdalangan ma’shuqa, shak-shubhasiz, davr qizi ekanligini shoirning quyidagi misralari yana bir bor tasdiqlaydi:

Ey zamonam faxri-yu davrim qizi, el dilbari,
Siz bilan faxr etdi o‘lkam, yaxshilardan yaxshisiz[53].

[49] Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. – Тошкент: ЎЗБЕКИСТОН, 2015. – Б. 200.
[50] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 97.
[51] Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. – Тошкент: ЎЗБЕКИСТОН, 2015. – Б. 175.
[52] Чустий. Кўнгил тилаги. (Девон). – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 69.

Umuman, Chustiy o‘z ijodida oshiq, ma’shuqa va raqib obrazlarining mukammal namunalarini yaratdi. Shoir o‘quvchi ko‘z o‘ngida bu timsollarning qiyofasini gavdalantirishda mumtoz adabiyotimiz namoyandalariga, shu bilan birga, zamondoshlariga ergashib, ularning an’analari, ijodiy tajribalaridan mahorat bilan foydalandi, shuningdek, o‘ziga xos uslub ham yaratdi.

Uchinchi bob “**Ijodkor she’riyati badiiyati**” deb atalib, shoirning poetik mahorati qirralarini ochib berishga qaratilgan. Mazkur bobning **“She’riy san’atlar ifodasida poetik niyat talqini”** deb nomlangan birinchi faslida Chustiy ilmi bade’ sirlarini chuqur egallagan va ijodiyotida mahorat bilan qo‘llay olgan yuksak salohiyatli ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi. “Adabiy asarlarda she’riy san’atlardan foydalanish badiiyatning muhim qirralaridan biri sifatida baholangan. Bunday poetik tasvirlar she’riy san’atlar sirasiga kirsa-da, ammo ular mumtoz she’riyatning qon-qoniga singib, uning zaruriy unsurlariga aylanib ketgan”[54]. Shoir she’riyatida, bir tomondan, unga qadar bo‘lgan o‘zbek she’riyatida mavjud bo‘lgan poetik vositalarning yanada taraqqiy etganligini ko‘rsak, ikkinchi tomondan, faqat shoir lirikasi orqali yuzaga chiqqan yangi usul va obrazlarning shohidi bo‘lamiz. Chustiy she’rlari badiiy qurilmasining mustahkam, ixcham, lo‘nda, ta’sirchan va jozibali bo‘lishida ma’naviy san’atlarning o‘rni beqiyos. Shoir lirikasida eng ko‘p uchraydigan san’atlardan biri mubolag‘a san’atidir. Mubolag‘ali tasvirlar Chustiyning, ayniqsa, ishqiy g‘azallarida ko‘p uchraydi. Masalan, shoir ma’shuqa go‘zalligini tasvirlar ekan, bevosita mubolag‘a san’atiga murojaat qiladi:

Sochi oshiq bo‘lib tushmish iziga,
Yo‘q ersa boshi erda sudralurmu[55]*?*

Emishki, soch ma’shuqaga xushtor bo‘lib, uning iziga tushgan, bo‘lmasa uning boshi yerda sudralmasdi. Bu orqali shoir yorning tovoniga tushgan sochini nazarda tutgan va unga shoirona baho bergan.

Adabiyotshunos olim Sh.Yusupov quyidagicha yozadi: “Chustiy klassik she’riyatdagi an’anaviy obrazlarga murojaat qilganida, deyarli har safar, bu obrazlarning o‘zidan oldingi yirik ijodkorlar nigohidan pinhon qolgan biror yangi qirrasini ochishga, ularga yangicha ma’no va talqin berishga intiladi, ko‘p hollarda o‘quvchi kutmagan, favqulodda kuchli xulosalar chiqaradi”.[56] Masalan,

Yuzingni (ng) gulxanida tovlanib xoling kuyub qolmish,
Bu o‘tdan bahrasizlar ta’na aylab ro‘siyo derlar[57]*,-*

baytida shoir yor yuzidagi xolning qora bo‘lib qolishiga sabab ko‘rsatish orqali mubolag‘a qo‘llaydi. Mumtoz adabiyotimizdan ma’lumki, ma’shuqa yuzi nihoyatda go‘zal va yana shu darajada nigohi o‘tli tasvirlangan. Muallif talqinicha, mahbuba go‘zalligining bir belgisi bo‘lgan xol yor yuzining *“gulxanida”* tovlanib, go‘yoki kuyib qolganmish.

Mana bu satrlarda Chustiy hamisha ohoriy tasvir yo‘lidan borganligini isbot etdi:

Ko‘zim charxida charxla xanjari mujgoning, ey dilbar,
Nechunkim zang bosmish ishq elin qoni-la bu xanjar.
Uni xanjar demam, yo‘q-yo‘q g‘uborolud har kiprik,

---

[53] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 96.
[54] Исҳоқов Ё. Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 108.
[55] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 307.
[56] Юсупов Ш. Халққа бахшида умр // Чустий. Ҳаётнома (девон). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 10.
[57] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 218.

Ko‘zingni saqlamoqqa saf tuzib turgan qaro navkar[58].

Chustiy yuqoridagi kabi oshiq iztiroblari va ma’shuqa latofatini mubolag‘ali tasvirlar ekan, ularga o‘quvchini ishontirish maqsadini ko‘zlamaydi. Shoirning muddaosi oshiq kechinmalarining naqadar kuchli hamda yor go‘zalligining nechog‘li yuksak ekanligiga kitobxonda ishonch hosil qildirish, shuningdek, ularga estetik zavq bag‘ishlashdir.

Shoir quyidagi baytida ma’shuqaning qora ko‘ziga nisbatan o‘ziga xos husni ta’lil qo‘llaydi:

Qarolikni ko‘zingdan qarz olib, qarzin uzolmasdan,
Xijolatdan qochib yurmish baland tog‘larda ohular[59].

Tog‘larda sakrab yurgan ohu ma’shuqa ko‘zidagi qoralikni qarzga olgan, lekin qarzni uzolmaganligi uchun haligacha tog‘larda qochib yuribdi.

Dissertatsiyada shoir ijodida qo‘llangan tashbeh, tamsil, talmeh, tashxis, tajohuli orif, irsoli masal kabi ma’naviy, tajnis, tanosub, tazod, ishtiqoq, tafriq, tardu aks kabi lafziy san’atlar mavjudligi misollar bilan dalillangan.

Bobning **“Shoirning vazn, qofiya va radif qo‘llashdagi mahorati”** nomli ikkinchi faslida Chustiyning lirikada qofiya va radif qo‘llash bilan bog‘liq mahorat qirralari yoritilgan. Shoir lirik merosi qofiya va radif qo‘llash nuqtai nazaridan yangi tadqiqotlar uchun asos bo‘la oladi.

Qofiya oq she’rlardan tashqari barcha nazmiy asarlarda qo‘llaniladi. Qofiyaning nazmdagi o‘rnini o‘rganish, baholash borasida o‘zbek adabiyotshunosligida bir qator izlanishlar amalga oshirilgan, muhim tadqiqotlar yaratilgan[60]. Adabiyotshunoslikda qofiya bir xil tovushlar bilan tugallanadigan so‘zlar deb qaraladi[61]. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonidagi qofiya va radiflar ijodkor baiiy niyati, badiiy g'oyasi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab quyidagicha yozadi:

Ham qofiyasi aning sifoti,
Ham barcha radifi oning oti[62].

Chustiy ham o‘z ijodi badiiyatini nafaqat mazmun, she’riy san’atlar asosida, balki she’rlarida qofiya va radifning asar ruhiga mos tarzda tanlagani bilan ham sayqallashtirdi. Shoir lirikasidagi qofiya va radiflar tizimi shakliy mukammallik, g‘oyaviy yuksaklik uchun xizmat qilgan. U she’riyatda mavjud qofiya turlaridan foydalanib, lirik qahramon kechinmalarini o‘ziga xos tarzda ifodalagan. Bizga ma’lumki, mumtoz she’riyatda qofiyaning 4 ta turi mavjud. Bular: mujarrad qofiya, murdaf qofiya, muqayyad qofiya va muassas qofiyalar[63]dir. Chustiy mazkur qofiya turlaridan mujarrad va murdaf qofiyani she’riyatida keng qo‘llaydi.

---

[58] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 264.
[59] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 269.
[60] Рустамов А. Қофия нима? – Тошкент: Фан, 1976.; Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия. – Тошкент: Фан, 1997; Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998; Ҳамроева О. Ж. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. Монография. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – 254 б.
[61] Ҳайитметов Ф.А. Алишер Навоий ғазалиётда қофия ва мантиқ уғруси муносабати. – Тошкент: 1993. – Б. 3
[62] Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Doston. Nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir: Rahmonov V. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020. – B. 141.
[63] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 197.

Chustiy lirikasida qofiya san’atlarini ham kuzatishimiz mumkin. Bayt misralarida ikki so‘zni qofiyadosh qilib keltirish san’ati zulqofiyatayn san’ati hisoblanib, shoir mana bu

Ichishga izlama suv qon oqar anhordan zinhor,
Sharafli ishga hargiz aylama makkordan hamkor[64],–

baytlari bilan boshlanuvchi g‘azalini tajnisi mukarrir san’ati asosidagi zulqofiyatayn usulida bitgan. Baytdagi “*anhordan zinhor”, “makkordan hamkor”* qofiyalari zulqofiyatayn san’atini vujudga keltirgan. Diqqat qilinsa, har baytning qofiyalanuvchi misralari mukarrar tajnisli ikki qofiyadosh so‘z bilan tugallanayotganini ko‘rish qiyin emas. Har qaysi misradagi ikki qofiya o‘zaro ham ohangdosh, ham qofiyadoshdir. Shoir zulqofiyatayn san’atini o‘z ijodida keng qo‘lladi. Uning “Ming ofarin”, “Kerakmassan menga”, “Eshik qoqdi bahorim” kabi g‘azallari shu san’at asosiga qurilgan.

Tajnisli qofiyalarni she’riy asarlarda qo‘llash ham qofiya san’atlaridan hisoblanadi. Shoir ijodida bunday san’atni ko‘plab uchratamiz:

Qalbini qilsang musaxxar bo‘lgusi ag‘yor yor,
Ko‘nglidan chiqsang bilib qo‘y, senga bo‘lmas yor yor[65] .

Bu g‘azalda shoir murakkab tajnis san’atidan mohirona foydalangan bo‘lib, “*yor yor*” so‘zlari orqali tajnisli qofiya yaratgan.

Chustiy o‘z lirikasida radifning o‘rniga alohida ahamiyat bergan, uning turli xil ko‘rinishlarini mohirona qo‘llay olgan, shuningdek, o‘zi ifoda etgan asosiy fikrni radif orqali ham ta’kidlab, o‘quvchining asosiy e’tiborini ana shu radifda ifodalagan so‘z yetakchilik qilgan g‘oyaga qaratgan. “Hayotnoma” nomli shoir devonida 282 ta g‘azal mavjud bo‘lib, ularning 199 tasi radifli, 83 tasi esa radifsiz. Endi shu jihatdan Chustiyning “Sadoqat gullari” nomi ostida chop etilgan devonini ham ko‘zdan kechirsak, devondagi 211 g‘azaldan 161 tasida radif qo‘llangan va qolgan 50 ta g‘azal radifsiz holatda yozilganligining guvohi bo‘lamiz. Demak, ijodkor o‘z lirikasida ilgari surayotgan g‘oya va maqsadga kitobxon diqqatini qayta-qayta jalb etish, shuningdek, baytlar jozibasini orttirish, ohangdorlikni ta’minlash uchun ham radifga ko‘p murojaat qilgan.

Chustiy lirikada radifning o’rni muhimligini chuqur his qilgan holda, radifning turli xil shakllaridan foydalandi. Bir so‘zli, ikki so‘zli, uch so‘zli, to‘rt so‘zli, besh so‘zli va hatto olti so‘zli radiflarni ham lirik maydonga olib kira oldi. Chustiy devonlarini o‘rganganimizda, bir radif bilan bir nechta g‘azallar yozilganligini aniqladik va ularga “Bo‘lsangiz” (3 ta), “Dema” (2 ta), “Bo‘lmasa” (4 ta), “Bo‘ling” (2 ta), “Ustiga” (2 ta), “Menga” kabi radifli g‘azallarni misol qilib keltira olamiz. Umuman, Chustiy she’rlarining qofiya va radifi asarda ifodalangan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar, teran falsafiy mushohadalarni badiiy so‘z vositasida jozibali va ta’sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biri bo‘lgan.

XULOSA

1. Chustiy ijodi muayyan davr adabiyoti va she’riyati xususiyatlari yoritilgan ishlarda va tadqiqotlarda ma’lum darajada o‘rganilgan, lekin shoirning ilmiy biografiyasi hali hanuz mukammal yaratilmagan. Xususan, O‘zR FA Alisher

[64] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 283.
[65] Чустий. Ҳаётнома. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 407.

Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi arxivida 20 ta yig‘majildda saqlanayotgan materiallar o‘rganish obyekti bo‘lmagan. Mavzuni o‘rganish jarayonida arxiv materiallari o‘rganilib, shoirning ilmiy biografiyasini yaratish borasida xulosalar chiqarildi.

2. Shoir mumtoz salaflarning adabiy tajribalarini ijodiy o‘zlashtirib, o‘ziga xos badiiy tafakkur va individual poetik uslubni shakllantirgan. Chustiy mumtoz an’analarni ijodiy davom ettirgan iste’dodli so‘z san’atkori sifatida boy adabiy meros qoldirgan. Ular she’riy to‘plam, devon, doston, drama va tarjimalardan iborat. Mazkur manbalarning yetakchi qismini lirik asarlar tashkil etib, ular “Hayotnoma”, “Sadoqat gullari”, “Ko‘ngil tilagi” devonlari, “Ko‘rguncha, xayr endi” kabi to‘plamlari va “Saylanma”dan o‘rin olgan.

3. Shoir g‘azal, mustazod, masnaviy, musammatlar – murabba’, muxammas, musaddas, musamman, muashshar, shuningdek, ruboiy, qita’, tuyuq, chiston kabi ko‘plab janrlarda barakali ijod etdi, ularning aksariyati an‘anaviy barqarorlik zaminida paydo bo‘lganligini kuzatish mumkin. Shoir lirikasining asosini g‘azallar tashkil etgan. Devonlarida g‘azallarning shakliy-poetik jihatdan oddiy g‘azal, g‘azali musajja’, g‘azali muvashshah, g‘azali mushoira, g‘azali zulqofiyatayn, g‘azali qit’a, g‘azali zulradifayn singari ko‘rinishlari mavjudligi aniqlandi.

4. Shoir ijodiy merosidan o‘rin olgan g‘azallar mavzusiga ko‘ra quyidagicha tasnifga ega: 1) oshiqona g‘azallar; 2) axloqiy-ta’limiy g‘azallar; 3) peyzaj g‘azallar; 4) publitsistik g‘azallar; 5) hajviy g‘azallar. Mazkur g‘azallarda shoir mumtoz salaflari an’analarini davom ettirdi va rivojlantirdi. Shoirning an’ana bag‘rida yangilikka intilganligi jihatlarini ham qayd etish lozim. Chustiy ijodigacha g‘azalning g‘azal muvashshah, g‘azali qo‘sh muvashshah turlari mavjud bo‘lgan, lekin *g‘azali muvashshahi ta’rix* janri uchramagan. Shoir g‘azalning mazkur turida muvashshah va ta’rix san’ati xususiyatlarini o‘zida jamlashga muvaffaq bo‘ldi. Muallifning “Charxiyga” nomli g‘azali muvashshahi ta’rixning go‘zal namunasidir. Bundan tashqari shoir “Husningdan o‘par yoz” nomli mustazod-muxammas ijod etib, Tabibiy boshlab bergan yangilikni an’anaga aylantirdi. Shuningdek, mazkur mustazodning barcha misralarini o‘zaro qofiyalanadigan ko‘rinishga keltirdi.

5. Chustiy lirikasining mavzular olami nihoyatda keng. U ishq-muhabbat, axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy, hajviy mavzularda she’rlar yaratdi. Shoir she’rlarining asosiy qismini dunyoviy sevgi mavzuidagi va pandnoma xarakteridagi she’rlar tashkil etgan. Yana bir muhim xususiyat shundaki, Chustiy she’rlarida davr ruhi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir qaysi mavzularda ijod etmasin, ular zamirida barkamol inson tarbiyasi yotadi.

6. Shoir lirik she’rlari, asosan, ishqiy mavzuda yozilgan. Bu mavzudagi she’rlarida oshiq-ma’shuqa-raqib uchlik obrazlari ijodkor badiiy niyatini mukammal poetik ifodalashga xizmat qilgan. Bu borada ustoz shoirlar tajribasidan foydalandi, shuningdek, oshiq va ma’shuqa tasvirida o‘ziga xos qirralar ham mavjud. Chustiy yaratgan oshiq, ma’shuqa va raqib timsollarining an’anaviy obrazlardan farqi shundaki, ularda zamonaviylik ruhi bo‘rtib turadi. Masalan, urush davrida yozilgan she’rlarida jangchi oshiq timsoli gavdalantirilgan. Yoki ma’shuqani oladigan bo‘lsak, u nafaqat tengsiz go‘zal, bevafo, jafokash, balki

ilg‘or terimchi, pillakor, g‘allakor yoxud qo‘li gul chevar hamdir. Bu jihatlari bilan u oshiq qalbidagi muhabbatning yana ham ortishiga, oshiqning bundan-da azob chekishiga sabab bo‘ladi.

7. Shoir she’riyatida o‘nlab ma’naviy va lafziy san‘atlar qo‘llangan. Uning ijodidagi she’riy san’atlar lirik jozibani ta’minlabgina qolmasdan, muallifning g‘oyaviy-badiiy qarashlarini ham estetik ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Shoir she’riy san’atlarni qo‘llash borasida o‘ziga xos badiiy kashfiyotlar yaratdi. Ijodkor ma’naviy va lafziy san’atlardan samarali foydalandi, ayniqsa, ma’naviy san’atlar shoir ijodida keng o‘rin tutadi. Jumladan, mubolag‘a, tashbeh, irsoli masal, tashxis kabi san’atlar shoirning poetik mahoratini yuksak tarzda namoyon etishga xizmat qilgan.

8. Chustiy she’rlarini ham aruz va ham barmoq vaznlarida yaratdi, lekin uning aksariyat she’rlari aruz o‘lchovida yaratilgan. O‘zbek aruzida 19 bahrdan 11 tasi qo‘llanilgan bo‘lsa, shoir bularning 8 tasida ijod etdi. Ular jumlasiga ramal, hazaj, muzori’, mujtass, rajaz, mutaqorib, sari’, munsarih bahrlari kiradi. Shoir ijodida uchta: xafif, mutadorik, komil bahrlari uchramaydi. Ijodkor she’rlarini, asosan, ramal bahri asosida yaratdi. Bu bahrning musamman vaznida bitilgan she’rlar Chustiy lirikasida yetakchilik qiladi. Shuningdek, hazaj bahrining barcha vaznlarida jozibador she’rlar bitgan. Shoir she’rlarining aruzga xos musiqiylik, ohangdorlik va o‘ynoqilik xususiyatlari bilan yo‘g‘rilganligi diqqatga sazovordir.

9. Chustiy lirikasining yuksak badiiyligini ta’minlashda qofiya va radifning ham o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shoir qofiya va radif uchun jarangdor va ohangdor so‘zlarni tanlagan. Ijodkor lirikasida qo‘llangan qofiya san’atlari va radiflar shoirning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi. Chustiy she’riyatining qofiya va radifi asarda ifodalangan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar, teran falsafiy mushohadalarni badiiy so‘z vositasida jozibali va ta’sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biriga aylangan.

10. Shoir mumtoz qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra to‘rt turi: mujarrad, murdaf, muqayyad va muassas qofiyalarning barchasidan san’atkorona foydalangan. Qofiyaning bu turlari ijodkor lirik asarlarida fikrning mantiqiy izchilligini, ifodaga mos ohangini, badiiy so‘zning ta’sir kuchini ta’minlashga xizmat qilgan. Shoir qofiyaning tuzilish jihatdan ikki turi: muqayyad qofiya va mutlaq qofiyani ham mahorat bilan qo‘llagan. Shoir radif qo‘llash orqali g‘azal yoki musammatlarida ochqich so‘z mazmunini qabariq ifodalashga, she’rlarida ohang va ritmni kuchaytirishga erishgan. Shuningdek, zulqofiyatayn, tajnisli qofiya, musajja’ kabi qofiya san’atlarining go‘zal namunalarini yaratgan.

SCIENTIFIC COUNCIL No. PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03
AWARDING ACADEMIC DEGREES
AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

OTAKHANOVA MAHMUDA MAMADALIEVNA

THE POETIC CHARACTERISTICS OF CHUSTIY'S LYRIC POETRY

10.00.14 – 20th-Century Uzbek Literature and Contemporary Literary Process

ABSTRACT
OF THE DISSERTATION FOR THE DEGREE OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
IN PHILOLOGY

Namangan – 2026

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered with the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under registration No. B2021.1.PhD/Fil1578.

The dissertation was completed at Namangan State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, and Russian (summary)) has been posted on the website of the Scientific Council (www.namdu.uz (http://www.namdu.uz/)) and on the "ZiyoNet" Information and Educational Portal (www.ziyonet.uz (http://www.ziyonet.uz/)).

Scientific advisor:	**Karimova Faridakhon Isakovna** Doctor of Philological Sciences (DSc), docent
Official opponent:	**Oripova Gulnozakhon Murodilovna** Doctor of Philological Sciences(DSc), docent
	Gaipov Dilshod Qadambayevich Doctor of Philological Sciences, professor
Leading organisation:	**Jizzakh State Pedagogical University**

The defense of the dissertation will take place at a meeting of the Scientific Council No. PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 at Namangan State University on "___" _____ 2026 at _____. (Address: 161 Bobursho‘h Street, Namangan, 160119. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01; Fax: 228-85-02. Website: www.namdu.uz (http://www.namdu.uz); e-mail: info@namdu.uz; Fax: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

The defense of the dissertation will take place at a meeting of the Scientific Council No. PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 at Namangan State University on "___" _____ 2026 at _____. (Address: 161 Bobursho‘h Street, Namangan, 160119. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01; Fax: 228-85-02. Website: www.namdu.uz (http://www.namdu.uz); e-mail: info@namdu.uz; Fax: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.).

Abstract of the disseratation was distributed on 2026-year "___" _____.
(Registry report 2026-year "___" _____ numbered _____).

N.M.Uluqov
Chairman of the Scientific Council Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor.

O.T.Yuldashev
Secretary of the Scientific Council Awarding Academic Degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor.

M.Y.Sulaymonov
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council Awarding Academic Degrees, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor.

INTRODUCTION (Annotation of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and Necessity of the Dissertation Topic. In world literary studies, the investigation of such issues as the interrelationship between the creative process, poetic structure, and artistic mastery; tradition and innovation; the system of literary genres; the characteristics of meter and rhyme; artistic language; and individuality in the use of form and figurative devices is recognized as having significant scholarly and practical importance. In particular, considerable attention is being devoted to the comprehensive study of such issues as the reflection of a writer's biography in their works, the identification of features manifested in their individual style, the classification of genres, themes, and literary images, and the poet's artistic and poetic mastery.

In contemporary world literary scholarship, considerable research has been conducted into the social, political, and literary environment in which a writer lived, as well as the formation of their literary and aesthetic views, as factors determining their individual style and artistic mastery. At present, discovering new dimensions of poetics through the study of the artistic mastery of individual writers has become one of the priority areas of modern literary scholarship. At the same time, particular attention is being paid to the scholarly and theoretical investigation of individual style and poetic mastery, as well as tradition and innovation, in the context of the diversity of poetic genres and forms

In Uzbek literature study, the opportunity to study the history of Uzbek literature of the early twentieth century objectively and fairly has expanded considerably. "Namangan has long been a sacred land that has given wings to the flight of many talented individuals. Our people respectfully mention the names of such poets and enlighteners as Mahdumi Azam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoniy, Ishoqxon Ibrat, and Muhammadsharif Sufizoda, who were born and created their works in this ancient land"[66]. In the literary studies of the independence period, several studies have been devoted to the literary heritage of these authors. At the same time, literary scholarship has paid considerable attention to the study of fiction from the perspective of creative-individual style and poetics, as well as to elucidating the poetic mastery of authors. Nevertheless, the rich literary heritage created by certain authors has not yet received the recognition it deserves. "We must never forget that attention to literature and art, to culture, is first and foremost attention to our people and our future, and that if literature and culture survive, the nation can survive" [67]. Therefore, there is a need to further deepen scholarly research into the poetry of the poet Chustiy (Nabikhon Khojayev), who lived and created during the second half of the twentieth century, to reveal the traditional, hereditary and innovative features characteristic of his

[66] Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 73.

[67]Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август. – Б. 1

poetry, and to examine the genre, thematic and metrical aspects of his works, as well as the artistic mastery of the author. This determines the relevance of the selected topic.

This dissertation research will to a certain extent contribute to the implementation of the objectives set forth in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017, “On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan”; No. PF-4958 of February 16, 2017, “On Further Improvement of the System of Postgraduate Education”; No. PF-6108 of November 6, 2020, “On Measures for the Development of the Spheres of Education and Science in the New Development Period of Uzbekistan”; and No. PF-60 of January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; Resolution No. PQ-3271 of September 13, 2017, “On the Comprehensive Program of Measures for the Development of the System of Publishing and Distribution of Books, Increasing and Promoting the Culture of Reading and Book Consumption”; Resolution No. 124-F of the Cabinet of Ministers dated February 16, 2018, “On Holding an International Conference on Current Issues in the International Study and Promotion of Uzbek Classical and Contemporary Literature”; as well as other normative and legal documents related to this field.

Compliance of the Research with the Priority Areas of the Development of Science and Technology of the Republic. This research was conducted in accordance with Priority Area I of the development of science and technology of the Republic: “Formation of a system of innovative ideas for the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state, and ways of implementing them.”

Degree of Study of the Problem. In world literary studies, the works of authors who, through their outstanding examples of poetic thought, have exerted a significant influence on the spiritual life of humanity have been at the center of attention of literary scholars. Poetic issues have been studied monographically in the works of prominent scholars such as Aristotle, M. M. Bakhtin, L. G. Prigozhina, A. N. Veselovsky, A. A. Potebnya, and B. V. Tomashevsky[68]. These studies approach the issue of poetics within the framework of literary theory and reveal its essential principles and regularities.

In Uzbek literary studies, the research of scholars such as M. Qo'shjonov, N. Rahimjonov, V. Qodirov, B. Norboyev, A. Sabirdinov, Sh. Hasanov, G. Ashurova, H. Nusratova, H. G'aipova, A. Abdurahmon, and M. Davronova has analyzed the poetics of individual authors' works and their distinctive artistic features[69].

[68] Аристотель. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика / Рус тилидан М. Маҳмудов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 352 б.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. М, 1979. – С. 222.; Пригожина Л.Г. Проблемы поэтической драмы и советский театр рубежа 1920-1930 х годов. Учебное пособие. – Л., 1991. – 74 с.; Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 224 с.; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 299 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – 614 с.; Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М.: Аспект пресс, 1996. – С.182.

[69] Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 329 б.; Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2003. – 173 б. ; Қодиров В. Ҳозирги замон ғазаллари поэтикасининг айрим хусусиятлари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 44 б.; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат

A number of studies have also been devoted to the work of Chustiy – Nabikhon Khojayev. These include several articles and pamphlets by Sh. Yusupov, M. Nurmatov, I. Abdulloh, H. Sadulla, A. Xalilbekov, M. Mamurov, M. Inom, U. Abduazimova, A. Abduvaliev, Z. Dehqonova, T. Toshev, and H. Orifiy[70], as well as studies by Sh. Rahmonova, S. Shomurodova, G. Boltayeva and others[71]. The research conducted by literary scholar Sh. Rahmonova on the issue of poetic metre can be regarded as a serious and substantial contribution in this field. Alongside other authors, the study presents significant observations concerning the metrical features of Chustiy's ghazals. This research is of particular significance because it provides a special monographic study of the genre composition, thematic scope, and system of images in Chustiy's lyric poetry, as well as the poet's artistic mastery in the use of poetic devices, rhyme, and radif.

The Relationship of the Dissertation Research with the Research Plans of the Higher Education Institution Where the Dissertation Was Completed. The dissertation was carried out within the framework of the research topic "Current Problems of Uzbek Literary Studies," included in the research plan of Namangan State University.

Aim of the Research. The aim of the research is to reveal, on the basis of literary-textual analysis and relying on the principles of literary tradition, continuity, and originality, the thematic scope and genre composition of Nabixon

---

муаммолари: Филол. фан. д-ри … дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 54 б. ; Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 46 б. ; Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек достонлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри … дисс. – Самарқанд, 2004. – 258 б. ; Ашурова Г. Абдулла Орипов шеъриятида анъана ва бадиий маҳорат (образ, ғоя ва тасвир): Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б. ; Нусратова Ҳ. Сафар Барноевнинг бадиий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 45 б.; Ғаипова Ҳ. Матназар Абдулҳакимнинг бадиий ва публицистик маҳорати: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б.; Абдураҳмон А. Ўзбек шеъриятида нур, ранг ва руҳият тасвири поэтикаси (анъана ва новаторлик аспектида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 54 б. ; Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси (Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Фахриёр ва Абдували Қутбиддин шеърияти мисолида): Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 66 б.

